

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA AXBORIY TAHDIDLAR VA ULARNING SHAXS IJTIMOYIY-SIYOSIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI**

*Burxonov Javodbek*  
*O'zbekiston Milliy universiteti*  
*ijtimoiy fanlar fakulteti*  
*mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada Globallashuv sharoitida axboriy tahdidlar va ularning shaxs ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashiga ta'sir qilishining ayrim jihatlari turli xil manbalar asosida ochib berilgan. Shuningdek, unda hozirgi davrda globallashuv jarayoni tobora kengayib borayotganligi va bu jahon siyosiy makonining yangicha ko'rinishi va taraqqiy etishiga ta'sir qilayotganligi haqida fikr yuritilgan. Jahon siyosiy makonida davlatlarning global rivojlanishi bu avvalambor, dunyoning barcha davlatlari va xalqlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, psixologik jihatdan birgalikdagi yangicha taraqqiyoti ekanligi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, axborot, axborot erkinligi, internet, ijtimoiy tarmoq, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, ma'naviyat, integratsiya, "ommaviy madaniyat", so'z erkinligi, elektron dunyo, millat, erkinlik, fuqarolik jamiyati.

**Тема: В условиях глобализации информационные угрозы и их влияние на общественно-политическое мировоззрение личности**

**Аннотация:** В статье на основе различных источников раскрыты некоторые аспекты информационных угроз и их влияние на социально-политическое мировоззрение человека в условиях глобализации. Это также отражает тот факт, что процесс глобализации в настоящее время все больше расширяется и влияет на новый облик и развитие мирового политического пространства. Глобальное развитие государств мирового политического пространства раскрывается, прежде всего, как новое совместное развитие всех государств и народов мира в политическом, экономическом, социальном, культурном, экологическом и психологическом аспектах.

**Ключевые слова:** глобализация, информация, свобода информации, интернет, социальная сеть, правовая культура, правовое сознание, духовность, интеграция, «массовая культура», свобода слова, электронный мир, нация, свобода, гражданское общество.

**Topic: In the context of globalization, information threats and their influence on the social-political worldview of an individual**

**Resume:** Based on various sources, the article reveals some aspects of information threats and their impact on a person's socio-political worldview in the context of globalization. This also reflects the fact that the process of globalization is currently increasingly expanding and influencing the new appearance and development of the world political space. The global development of the states of the world political

space is revealed, first of all, as a new joint development of all states and peoples of the world in political, economic, social, cultural, environmental and psychological aspects.

**Key words:** globalization, information, freedom of information, internet, social network, legal culture, legal consciousness, spirituality, integration, "mass culture", freedom of speech, electronic world, nation, freedom, civil society.

Globalashuv — bu texnologiya, savdo va madaniy almashinuv tufayli mamlakatlar, madaniyatlar va iqtisodiyotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro bog'liqlikning kuchayishi jarayonidir. Globalashuv aloqalarni yaxshilash va iqtisodiy o'sish kabi ko'plab afzalliklarni keltirgan bo'lsada, ayniqsa, axborot xavfsizligi sohasida yangi muammolarni keltirib chiqardi.

Globalashuv kontekstidagi axborot tahdidlari globalashgan dunyoda ma'lumotlarga kirish, qayta ishlash va ulardan foydalanishda odamlar duch keladigan turli xil xavf va muammolarni anglatadi. Ushbu tahdidlarga noto'g'ri ma'lumot, dezinformatsiya, tashviqot, kiberhujumlar, shaxsiy hayot va ma'lumotlarni himoya qilishning buzilishi kiradi.

Shaxslarni ushbu tahdidlardan himoya qilish huquqiy, texnologik va ta'lim strategiyalarini birlashtirgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi.

Globalashuv hodisasi yaqinlargacha ko'pchilikka yaxshi ma'lum bo'lmagan tushuncha bo'lib hisoblangan bo'lsa, hozirgi kunda u jarayon sifatida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-falsafiy mushohadalarda eng ko'p ishlatilayotgan kategorial atamaga aylanib bormoqda.

E'tiborli jihati shundaki, 1987-yilgacha AQSH Kongressi kutubxonasi kartotekasida "globalashuv" tushunchasi qo'llanilgan birorta adabiyot bo'lmagan. Biroq, 1990-yillardan boshlab globalashuv muammosiga bag'ishlangan asarlar va maqolalar shiddat bilan ko'paya boshladi. Hozirgi kunda globalashuv jarayoniga nisbatan turli xil ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalar shakllanmoqda. Ularda mazkur jarayonni anglashga, uning xalqlar va davlatlar taqdiriga ta'sirini aniqlashga, oqibatlari va kelajagini tasavvur qilishga urinishlar kuzatilmoqda[8:B.71].

Shu kungacha "globalashuv" tushunchasiga nisbatan olimlar tomonidan juda ham ko'plab ta'riflar berilgan. Texnika fanlari doktori, professor I.Mazur va falsafa fanlari doktori, professor A.N.Chumakov tomonidan chop etilgan "Globalistika: Xalqaro fanlararo ensiklopedik lug'at" kitobida globalashuvga oid 3200 dan ziyod atamalar, tashkilotlar va hodisalar keltiriladi[9:B.89].

Bugungi globalashuv jarayonlari davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, jurnalistlar va boshqalar tomonidan turlicha sharhlanmoqda. Qanday atalmasin, bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashayotganligimiz muhtaram Prezidentimiz asarlarida ham ta'kidlangan.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "globalashuv fenomeni" atamasining bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishi, umumiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy – biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga,

mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etayotganligi ta'kidlangan[2:B.111].

Bunday Globallashuvga sabab – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shni davlatlar, balki boshqa mintaqalar hududlar bilan bog'liq bo'lmoqda, shu ma'noda "Globallashuv – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir"[2:B.111].

Professor S.Otamuratov o'zining "Globalashuv va millat"[4] asarida globallashuv tushunchasiga insoniyat rivojining yangi sifat bosqichi sifatida qarasa,

Ulug'bek Saidov o'zining "Globallashuv va madaniyatlararo muloqot"[5] monografiyasida globallashuv davrida davlat va jamiyat qurilishining ma'naviy-axloqiy negizlarini asrash va rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni tahlil etilgan.

Globallashuv jarayonlariga nisbatan xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan bildirilayotgan turli-tuman fikrlarni va yondashuvlarni umumlashtirgan holda ularni bir nechta guruhga ajratish mumkin:

- globallashuv – tabiiy tarixiy jarayon bo'lib uni ayrim davlatlar yoki mintaqalar tomonidan chegaralashning imkoniyati mavjud emas;

- globallashuv – rivojlangan davlatlar va transmilliy korporatsiyalar tomonidan uyushtirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy harakatdir;

- globallashuv insoniyat integratsiyasining sifat jihatidan yangi bosqichi bo'lgan obyektiv voqelik, biroq hozirgi paytda undan o'z manfaatlarini amalga oshirishda vosita sifatida foydalanishga intilayotgan kuchlar ham yo'q emas.

Bizningcha, aynan uchinchi yondashuv globallashuv jarayonining hozirgi bosqichini to'g'riroq aks ettiradi. Chunki, globallashuv tufayli yaratilayotgan qulay "imkoniyatlarni" anglagan kuchli rivojlangan davlatlar va turli-tuman siyosiy kuchlar mazkur jarayonni o'zlarining geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlariga bo'ysundirishga harakat qilishmoqda.

Bugungi kunda globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari barcha sohalarda, barqaror taraqqiyot yo'lida o'zlarining o'rinlariga ega bo'lib bormoqda. Albatta, bunda har bir davlatning tabiiy va iqtisodiy omillari bilan birga, inson omili, jumladan, yosh avlodlarni tarbiyalash, shart-sharoitlar yaratish, ularning intellektual salohiyatidan samarali foydalanish muhim. Davlat va jamiyat boshqaruvida ham, biznesni taraqqiy ettirishda ham, umuman, barcha soha rivojida salohiyatli yoshlarning alohida o'rni bor. Sababi, ular jamiyat uchun "yangi qon" vazifasini o'taydi. Yangidan-yangi tashabbus-g'oyalarni ilgari surish, zamonaviy ish yuritish uslublarini joriy qilishda ana shu qatlam yigit-qizlarning nuqtayi nazari va sa'y-harakatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida 1,8 milliard yosh avlod vakillari bor. Jumladan, O'zbekiston aholisining deyarli teng yarmidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etadi.

Globallashuv fenomeni zamonaviy dunyoda nafaqat iqtisodiyot va xususiy sektorni, balki siyosiy va ijtimoiy jabhalarda ham o'z aksini ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda yangi ma'lumotlar hayotimizning iqtisodiy hamda ijtimoiy transformatsiya jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Globallashuvning asosi ham aynan shu ma'lumotlarni qabul qilish, o'zlashtirish, tahrir etish va uzatishdan tashkil topgan.

Yoshlar har qanday jamiyatning ajralmas qismidir va globallashuv davrida avvalambor uning muammolari birinchilardan bo'lib yuzaga chiqadi. Insoniyatning

global muammolari, globallashuvning real jarayonlari va shakllarini aniqlashda, birinchi navbatda, yoshlar parametri turadi. Aynan yoshlar iqtisodiy va ijtimoiy tomondan aziyat chekadilar va mojarolar markaziga borib qolishlari mumkin. Avvalo, yoshlar yangilanib borayotgan dunyoviy etikani puxta egallab, uning asosida yashashni o'rganishlari kerak. Mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz tinchlik madaniyatini anglashlari va tushunib yetishlari, globalizatsiya jarayoniga ijtimoiy masofadan qarashlari muhimdir.

Albatta, globallashuv butun dunyoda ro'y berayotgan, ortga qaytmaydigan jarayon. Boshqa mamlakatlar qatori biz uchun ham zarur. Lekin, u biryoqlama bo'lmasligi kerak. Globallashuv milliy o'zlikni yo'qotish degani emas! Dunyo tamadduni turli xalqlarning o'ziga xos an'analari, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari bilan go'zal va boy hisoblanadi. Ularning har biri yashash va ravnaq topishga haqli. Lekin qaysidir davlat yoki davlatlar, xalq yoki xalqlar globallashuvni o'z mentalitetidan kelib chiqib, o'zgalarga tiqishtirishi kishilik jamiyatiga to'g'ri kelmaydigan holat hisoblanadi. U holda bu jarayon bir tomondan foyda qilsa, ikkinchi tarafdin jiddiy zarar keltirishi, asriy qadriyatlarga shikast yetkazishi, xalq o'z ildizidan ayrilgan "omma"ga, millat o'z qiyofasini yo'qotgan "manqurt"ga aylanib qolishi ehtimoldan uzoq emas. Bunday xatarga yo'l qo'ymaslikning chorasini bitta: o'zgalarning qadriyatini kamsitmagan holda o'z qadriyatlarimizni mahkam turib himoya qilishimiz, lozim bo'lsa, jumla jahonga ko'rsatishimiz kerak.

Har yili millatimiz yoshlarining kelajak ravnaqini o'ylab hamda yoshlarimizning ehtiyojidan kelib chiqqan holda zamonaviy maktab va kollejlarni qurilmoqda, ular eng so'nggi rusumdagi o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanmoqda. Shunday ekan, davlatimiz farzandlarimiz istiqboli uchun muttasil qayg'urayotgan bir paytda "globallashuv" bahonasi ostida tarbiyani izdan chiqaruvchi, ma'naviyatini kemiruvchi har qanday yot ta'sirlardan yoshlarimizni himoya qilish, dunyoda kechayotgan axborot tahdidiga qarshi yoshlarimizda sog'lom immunitetni shakllantirish, ogohlikni bir daqiqa bo'lsin qo'ldan boy bermaslik – bugun suv va havodek eng muhim zaruratga aylangan.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni keng jamoatchilikning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi yuksalishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu Farmonda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi muammo va kamchiliklar saqlanib qolinayotganligi sanab o'tilgan. Jumladan:

- huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan;

- yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq



qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murossasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi;

- aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi;

- huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda[10].

Davlatimiz rahbari o'zlarining ko'plab ma'ruza va chiqishlarida davlat va jamiyatni taraqqiy ettirish umumjamiyatning ishiga aylanishi kerakligini, buning uchun har bir fuqaro o'zining bu borada qat'iy fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishi, fuqaroning shaxsiy manfaati hech qachon jamiyat manfaatidan ustun bo'lmisligi lozimligini ta'kidlab o'tadilar.

Bizningcha, globallasuv jarayonlarida axborot va kompyuter texnologiyalardan to'g'ri va samarali foydalanish zarur. XXI asr insoniyat tamadduniga axborot texnologiyalari va intellektual salohiyat asri sifatida kirdi. Bu asrda inson aqlli va tafakkuri yordamida aql bovar qilmas darajadagi texnika va texnologiyalar yaratildi, aynan mana shu texnika va texnologiyalar yordamida hayotning barcha sohalarida yuksak natijalarga erishilmoqda. Mazkur kashfiyotlarning biri sifatida bugungi kunda eng ommalashgan internet tarmog'i esa yagona axborot tarqatuvchi manba sifatida bugungi kunda butun dunyo tomonidan e'tirof etilmoqda. Guruch kurmaksiz bo'lmagani kabi, aynan mana shu manbadan ham o'z g'arazli maqsadi yo'lida foydalanuvchilar chiqib turibdi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda hozirgi vaqtda mobil internetdan foydalanuv jadal taraqqiy etib bormoqda. Xususan, so'nggi besh yil ichida harakatlanuvchi keng polosali aloqa uchun shartnomalar soni yiliga kamida 20 foizdan o'sib borgan. 2017-yil oxiriga borib jahon bo'yicha mobil internet foydalanuvchilari soni 4,3 milliardga yetgan. 2022 yil oxiriga kelib esa dunyodagi Internet foydalanuvchilari soni 5,3 milliard kishini yoki dunyo aholisining uchdan ikki qismini tashkil qiladi[14].

Ta'kidlanishicha, koronavirus pandemiyasi boshlangandan so'ng, keng polosali infratuzilmaga ulanish ish, o'qish va asosiy xizmatlardan foydalanish uchun hayotiy zaruratga aylanganda foydalanuvchilar soni faol o'sishni boshladi. 2020 yilda foydalanuvchilar soni 10 foizga o'sdi, bu so'nggi o'n yillikdagi eng katta o'sish bo'ldi.

Tadqiqotlar jahonda 15-24 yosh oralig'idagi yoshlarning internetdan foydalanish ko'rsatkichlari o'sib borayotganini ko'rsatdi. Nisbatan kam rivojlangan mamlakatlarda internet foydalanuvchilarning 35 foizgacha bo'lgan qismini 15-24 yosh oralig'idagilar tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlarda bu yosh toifasidagi internet foydalanuvchilarining ulushi 13 foiz atrofida, jahon bo'yicha esa mazkur ko'rsatkich 23 foizdan oshmaydi. Birgina Xitoy va Hindistonning o'zida 320 million nafargacha yoshlar internetdan foydalanadi[13].

Ma'lumotlarda keltirilishicha 1 daqiqada o'rtacha hisobda internet tarmoqlariga 45 ta xabar reklama turli yangiliklar kiritilar ekan. Aynan mana shu vaqt mobaynida

esa dunyo bo'yicha atigi 5 ta qoldirilgan xabarlar o'chiriladi. Endi o'zingiz bir o'ylang kimdir o'qigan narsasidan to'g'ri xulosa chiqarsa, kimnidir esa bu yangilik umuman qiziqirmasa, yana kimgadir bu ma'lumotlar fikrining shakllanishiga zamin yaratadi. Qizig'i shundaki ushbu xabarlarning biri haqiqat bo'lsa, yana birisi esa kimgadir qilingan tuxmat, yoki noto'g'ri, asoslanmagan fikr-mulohazala, yana allaqanchasi tekin foydasiz, balki zararli maslaxatlar. Aynan mana shu internet tarmoqlari orqali tarqalayotgan va hamma uchun urf bo'layotgan "qonun-qoidalar" majmuasi "ommaviy madaniyat" nomi ostida jahon sahnasi ostida paydo bo'ldi. Ommaviy madaniyat – dunyo madaniyatlarining qo'shilishi, aralashishi, milliy madaniyatlarning sekin astalik bilan yo'qolib borishidir. Endi bir o'ylab ko'raylikchi, milliy madaniyat yo'qolib, butun dunyo bitta madaniyatga bo'ysunsa, amal qilsa, shu madaniyatni keltirib chiqargan, xalq qayerda qoladi, millat qayerda qoladi? Uning ming yillik tarixichi? Bir qarashda arzimas, e'tibor berilmas darajada ko'ringan bu narsa vaqti kelib bitta inson yoki mahallada yohud shaxs taqdiriga va kelajagiga emas, balki butun bir millat kelajagiga, tarixiga, ildiziga urilgan bolta bo'ladi.

Afsuski, "ommaviy madaniyat"ga xos illatlarni, xususan G'arbdagi an'ana va udumlarga bevosita taqlid, behayo kiyinish va bachkana qiliqlarni ayrim yoshlarimizda ham kuzatilmoqda. San'at ahlining hamda yoshlarimizning ayrim qismlarini "Ommaviy madaniyat"ga taqlidi jamiyatda jaholat ildizini otishiga olib kelishi mumkin. Bu xususida Prezident Sh. Mirziyov shunday degan edi: "Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar "ommaviy madaniyat" tahdidi faqat chetdan – G'arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski o'zimizdan, o'z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo'q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba'zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo'shiq va raqslarni kuzatib, sog'lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy. Eng yomoni, badiiy ijod sohasida jaholat ko'rinishlari kuchayib bormoqda"[1:B.195]. Yoshlarimizni bunday jaholatga berilib ketmasliklarini uqtirar ekan Yurtboshimiz shunday deydi: "...madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi"[1-B.195]. Shu bois hozirgi murakkab axborotlashgan jamiyat bosqichida o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy axloqiy qiyofasini shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimining eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Ma'naviy tahdidlar va axborot xurujlari kuchaygan bir paytda yoshlarni mafkuraviy immunitetini shakllantirish, ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini takomillashtirish davr talabidir. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishning bir qancha asos va omillari, usul hamda vositalari mavjuddir. Asrlar davomida shakllangan va ajdodlarimiz tomonidan sayqallanib kelingan milliy qadriyatlarimiz – yoshlar ma'naviy qiyofasini shakllantirishning eng muhim omilidir.

Shuningdek, hozirgi davrda globallashuv jarayoni tobora kengayib bormoqda va bu jahon siyosiy makonining yangicha ko'rinishi va taraqqiy etishiga ta'sir qilmoqda. Jahon siyosiy makonida davlatlarning global rivojlanishi bu avvalambor, dunyoning barcha davlatlari va xalqlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, psixologik jihatdan birgalikdagi yangicha taraqqiyotidir.

Globallashuv sharoitida avj olgan muammolarning yechimi hamkorlikdagi

harakatlarni talab qilmoqda. Ushbu integratsion jarayonlar doirasida quyidagi maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi izohlanadi. Bular:

- Xalqaro ijtimoiy-siyosiy muammolar: yadro urushining oldini olish; qurollanishi poygasi darajasini pasaytirish; mintaqaviy va davlatlararo mojoralarni hal qilish: umumjahonxavfsizlik tizimining mustahkamlanishi; xalqlar o'rtasidagi ishonchni takomillashtirish;

- Xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar: kam rivojlanganlik va u bilan bog'liq bo'lgan qashshoqlik hamda madaniy qoloqlikni bartaraf etish; energetik, xomashyo, mahsulot inqirozlarini hal etish yo'llarini qidirish; tinch maqsadlar uchun koinot makonini va jahon okeanini o'zlashtirish; ishlab chiqarish jarayonini ekologik xavfsizligini ta'minlash; tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash;

- Inson muammolari: asosiy huquq erkinliklariga rioya qilish; inson hayoti uchun muhim bo'lgan sharoitlarni ta'minlash, ijtimoiy munosabatlarni demokratlashtirish, madaniyatni rivojlantirish va saqlash; inson va tabiat, jamiyat, siyosat va xalqaro munosabatlar o'rtasidagi muvozanatni uyg'unlashtirish. Jahon hamjamiyati tajribasi insoniyat taqdiriga ta'sir etuvchi muammolarni faqatgina birlashgan holda hal etish mumkinligini ko'rsatayapti[6: B.2-3].

Hozirgi kunda yoshlarning ongiga chetdan kirib kelayotgan har turdagi axborotlar tez sur'atlarda ta'sir etmoqda, sababi, ayrim yoshlar yengil-yelpi axborotlarga berilib, ularni qabul qilishi ham oson kechadi.

Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi ana shu tarzda ma'naviy-axloqiy mezonga aylanadi. Erkin shaxs va ozod kishilik jamoasi bo'lgan fuqarolik jamiyati sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikning o'ziga xos tizimlari shakllanmog'i lozim. Bu bevosita OAV faoliyati va unga xizmat qiladigan axborot oluvchi, saqlovchi va tarqatuvchi shaxslarning siyosiy saviyasiga, kasb mahoratiga, eng muhimi fuqarolik pozitsiyasiga, jamiyat ishiga dahldorlik tuyg'usiga bog'liq. Zotan, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning bosh mezoni va asosiy tayanchi – millatparvarlik, vatanparvarlik, fidokorlik tuyg'usi hisoblanadi[3:B.6].

Hozirgi dunyo taraqqiyotining qonuniyatlari va globallashtirish jarayonlarining tahlili dunyo shaxsiy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlar bo'lishidan darak beruvchi "global axborot jamiyati" ostonasida turganligini ko'rsatmoqda.

Bugun inson hayotini axborot tizimlarisiz tasavvur qilish qiyin. Axborot asrida hatto harbiy harakatlarning usul va uslublariga ham muayyan o'zgartirishlar kirtildi. Shu bilan birga, informatsion xurujlar avj ola boshladi.

Albatta, axborot asridagi harbiy harakatlar bilan informatsion urushlar bir-biridan farq qiladi. Harbiy harakatlarda axborot texnologiyalar operatsiya muvaffaqiyatini ta'minlovchi vosita sanaladi. Informatsion urushda esa axborotga alohida obyekt, qurol sifatida qaraladi.

Globalashuv asrida bir davlat o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, axborotga ega bo'lish, undan foydalanish va uni himoyalashga intiladi. Shu bois muayyan davlat boshqa bir davlatga oid axbrotni qo'lga kiritisa, muayyan ustunlikka ega bo'ladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston bir qator informatsion xurujlarni boshidan kechirdi. O'zbekiston rahbariyatining axborot xurujlariga qarshi munosib

javob berganligiga bir dalildir. Uydirma va bo‘xtonlar goh chet el ommaviy axborot vositalari, goh “mustaqil jurnalistlar” tomonidan tarqatiladi va afsuski, hamon onda-sonda bo‘lsa-da, davom etayotir.

Bizga ma’lumki, O‘zbekistonni o‘z yo‘lidan og‘dirmoqchi bo‘lganlar hali ham bor ularning tinch turmasligi ham tayin. Lekin xalqimiz yurtboshimiz rahbarligida hayotning barcha sinovlarini, jumladan, informatsion xurujlarni ham yengib kelmoqda. Chunki oyni etak bilan yopib bo‘lmagani kabi, har qanday informatsion xurujlar ham barbod bo‘lishi muqarrardir. O‘z taraqqiyot yo‘lini aniq belgilab olgan va shu yo‘ldan dadil, qat’iy borayotgan xalqimiz ezgu, ulug‘ maqsadlar yo‘lida hech qanday bo‘xtonu, ig‘volarga uchmaydi.

Internetning cheksiz imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanib, davlatimizning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rnini yanada mustahkamlash va jahonga tanilishi uchun harakat qilishimiz zarur. Demak, biz internetdan umumilliy manfaatga xizmat qiladigan va uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotlarni tanlab, tahlil qilib foydalansak, salbiy va noxolis axborotlar ta’siriga tushib qolishning oldini olgan bo‘lamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyov Sh. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.”O‘zbekiston”2018 y.195 bet

2. Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” T., “Ma’naviyat”. 2008-y., 111 b.

3. Jo‘rayev N.Q. Tarix falsafasining nazariy asoslari. T., 2008. 6 b.

4. Otamurotov S. Globallashuv va millat. (siyosiy-falsafiy tahlil). T.: Yangi asr avlodi, 2008

5. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. T.: Akademiya, 2008.

6. Safayev S.S. Tarkatma material. “Globallashuv sharoitida milliy xavfsizlikni ta’minlashning dolzarb masalalari” T. 2005 2-3-betlar

8. Chumakov A.N. Globalizatsiya. Kontury selostnogo mira. M.: Prospekt. 2009. - S. 71.

9. Globalistika. Mejdunarodnyy mejdissiplinarnyy ensiklopedicheskiy slovar. – M.: Sankt-Peterburg, Nyu-York. Izd.sentr “Yelima” - “Piter”, 2006. S. 89.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sonli qarori 09.01.2019.

11. Hasanov R., Utamurotov A., Musayev O., Nazarov N. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati O‘quv qo‘llanma - T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021.

12. Hasanov R. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2023

13. Hikmatov A. Yil oxirida jahonda mobil internet foydalanuvchilari soni 4,3 mlrdga yetadi. <https://www.terabayt.uz/post/jil-oxirida-jahonda-mobil-internet-fojdalanuvchilari-soni-43-mlrdga-etadi>

14. 2022 yil oxirigacha qancha odam internetdan foydalanishi ma’lum qilindi. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/2022-yil-oxirigacha-qancha-odam-internetdan-foydalanishi-malum-qilindi/>